

## BOSHLANG'ISH SINFI O'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISH

Xudoyberdiyeva Hilola Azamatovna  
Surxondaryo viloyati Sherobod tumani  
27-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan ko'plab islohotlar amalga oshirilib, Ta'limni rivojlantirish bo'yicha ham qaror va qonunlar qabul qilinmoqda. Ushbu qarorlarda kasb-hunarga yo'naltirish masalalari ham ko'rib chiqilmoqda. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish bo'yicha ko'nikmalar berib o'tilgan. Boshlang'ich sinf yoshidan biror bir kasbni egallashga harakat qilgan, qiziqgan yosh o'quvchilar kelajakda kasb tanlashlarida ko'plab muammolarga duch kelmaydi. O'zi yoqtirgan ish bilan shug'ullanish kishiga zavq bag'ishlaydi, kasbini chin dildan sevib mehnat qilishga undaydi.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf, kasb, qiziqish, pedagog va psixologlar, qiziqishi, xarakteri, tafakkur.

**Kirish:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunar tushunchasini shakllantirish, yosh avlodning kelgusida egallaydigan kasb yoki hunariga e'tiborli bo'lish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masaladir.

Yoshlarni kasbga yo'naltirishdan ko'zlangan maqsad ularning kelgusida tanlayotgan kasbini o'zi mustaqil ongli ravishda anglagan holda tanlab, o'z kasbining mutaxassisi bo'lishida katta hissa qo'shadi.

Ayniqsa, Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunar tushunchalarini shakllantirib, ulardagi qiziqishlarni kuzatib borish, kelgusida yosh avlodning salohiyati, qobiliyatini va albatta ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasb tanlashga yo'l ochib beradi.

Kasbga yo'naltirish bu – bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, ilk bosqichda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning odob-ahloqi va mehnatga layoqatligiga ko'ra minimal talablar qo'yiladi.



Ikkinchi bosqichda Boshlang'ich sinf I-IV sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishdan maqsad va vazifalarni ko'zda tutiladi. Ayni shu bosqichda boshlang'ich sinf o'qituvchilari

zimmasi katta mas'uliyat yuklanadi. Bu borada o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishining shakllanishi, aynan qaysi kasb yoki hunar tomon intilayotganligi, ulardagi iqtidorni yuzaga chiqaruvchi qanday dasturiy ishlarni amalda qo'llash kerakligi va bu boradagi qator masalalarning qay darajda dolzarbligi muammo va yechimlarga to'xtalib o'tsak. Umumiy olib qaraganda boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda faqatgina kasb va hunar haqida o'zaki ma'lumotlar beribgina qolmay ulardagi qiziqishni aniqlab rivojlantirish jarayonlarini amalga oshirib borish zarur.

Masalaga amaliy jihatdan yondashadigan bo'lsak:

Birinchidan, Boshlang'ich sinf o'quvchilariga kasb-hunarni egallash yuzasidan tushunchalar berishdan avval, ular qaysi fanga o'zlarining imkoniyat darajasidan ko'proq intilayotganini o'qituvchi amaldagi kuzatuv jarayonlaridayoq anglay olishi zarur.

Ikkinchidan, o'quvchilardagi qiziqishlarni yuzaga chiqarishda yordam beradigan barcha turdagi ta'limiy o'yinlar, psixologik mashg'ulotlar, treninglar eng samarali va aynan boshlang'ich sinflar uchun dunyo miqyosida mos bo'lganlarini dasturiy ishlab chiqish bo'yicha shug'ullanish.

Uchinchidan, ishlab chiqilgan dastur bo'yicha amaldagi tadbqiqot ishlari, dasturni sinflar kesimida qo'llash va natijalar doskasi yaratish ushbu masalalar yechimi o'laroq amalga oshirish bo'yicha izlanishlar olib borilishida o'z samarasini beradi.

Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumot va vazifalar yosh avlodni ongli ravishda mustaqil kasb-hunar tanlashga yo'llash yoshlarning kasbni erkin va mustahkam tanlashi uchun zamin yaratuvchi amaliy ishlar sifatida qo'llashga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshqa fan o'qituvchilari va shuningdek, psixolog bilan uzviy aloqada ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Sababi boshqa fan o'qituvchilari ham o'z fanidan o'quvchilarning bilim salohiyati qay daraja ekanligi haqida sinf rahbariga ma'lumot berib, birgalikda faoliyat yuritilsa, kasbga yo'naltirish borasida yuzaga keladiga bir qancha muammolarning oldi olinadi. Kasbga yo'naltirishda nafaqat maktab jamoasi balki bu jarayonda ota-onalar ham faol qatnashishi joizdir. Sababi, o'quvchilar ota onasi hamkorligida kasblar haqida ma'lumot oladilar. Maktab jamoasi va oiladagi o'zaro hamkorlik bo'sagina, o'quvchilarda u yoki bu kasbga nisbatan moyillik, qiziqish paydo bo'ladi.

O'quvchilarning kasb tanlashiga bir qator omillar sabab bo'ladi. Masalan, ularning qiziqishi, xarakteri, tafakkur va qobilyati idrokidan kelib chiqqan holda bir to'xtamga kelinadi.

Bugungi kun o'quvchi va yoshlari kasb tanlashida pedagog va psixologlar kasb ta'limi mutaxassisleri olib borayotgan ishlar o'z samarasini bermogda. Darhaqiqat, o'quvchi va yoshlarning kasb tanlashida pedagog-psixologlarning o'rni beqiyosdir. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda bilimlarni chuqurroq egallashlariga nazariyot va amliyotning uzviy bog'lanishi, mehnatsevarlik ilm-hunarga ishtiyoklik ruhida tarbiyalashga zamin yaratadi.

**Xulosa:** Xulosa qilib shuni aytish mumpkunki yosh avlodni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash muhim hisoblanadi. Kelajak yoshlarni qo'lida ekan kelajakni qanday tasavvur qilishimiz, yosh avlodga qanday tarbiya berishimizga bog'liq.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ibrohimjon, M. (2022). **PSYCHOLOGICAL CRISES IN PERSONALITY PSYCHOLOGY AND WAYS TO OVERCOME THEM.** Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(4), 743-746.
2. Ibrohimjon, M. (2022). **THE POSITION OF SOCIAL PSYCHOLOGY IN THE WORLD TODAY.** PEDAGOGS jurnali, 13(1), 77-79.
3. Jumaboyeva M. Umumiy o'рта ta'limda kasbga yo'naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo'jaligi instituti, 2014.
4. Mardanov D. Maktabda kasbga yo'naltirish ishlari. – Nukus. 2013. – 182 b.